

Date: 1st April-2026

**NOGIRONLIGI BO‘LGAN SHAXSLARNI IJTIMOY INTEGRATSIYA
QILISHDA JAMIYATNING HUQUQIY, IJTIMOY VA MADANIY OMILLARI**

Saydirasulova Barno Aziz qizi

O‘zbekiston Milliy Universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti

Ijtimoiy ish yo‘nalishi talabasi.

Annotatsiya Mazkur maqolada nogironligi bo‘lgan shaxslarni jamiyat hayotiga to‘laqonli integratsiya qilish jarayonida huquqiy, ijtimoiy va madaniy omillarning o‘rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqotda nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlarini ta‘minlash, ularning jamiyat hayotida faol ishtirokini qo‘llab-quvvatlash hamda inklyuziv muhitni shakllantirishga qaratilgan huquqiy mexanizmlar, ijtimoiy institutlar va madaniy qadriyatlar o‘rganiladi. Shuningdek, nogironligi bo‘lgan shaxslarning ijtimoiy integratsiyasiga to‘sqinlik qiluvchi omillar, jamiyatda mavjud stereotiplar va ijtimoiy to‘siqlar tahlil etiladi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, nogironligi bo‘lgan shaxslarni ijtimoiy hayotga samarali integratsiya qilish uchun davlat siyosati, fuqarolik jamiyati institutlari va jamiyatning madaniy qarashlari o‘rtasidagi uyg‘unlik muhim ahamiyat kasb etishi asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar. Nogironligi bo‘lgan shaxslar, ijtimoiy integratsiya, inklyuziv jamiyat, huquqiy himoya, ijtimoiy siyosat, ijtimoiy institutlar, madaniy omillar, teng imkoniyatlar, ijtimoiy moslashuv, jamiyatda inklyuziya.

Abstract. This article analyzes the role and significance of legal, social, and cultural factors in the process of integrating persons with disabilities into social life. The study examines legal mechanisms aimed at ensuring the rights of persons with disabilities, supporting their active participation in society, and creating an inclusive environment, as well as the role of social institutions and cultural values in this process. In addition, factors that hinder the social integration of persons with disabilities, including existing stereotypes and social barriers in society, are analyzed. The results of the study demonstrate that effective integration of persons with disabilities into social life requires a harmonious interaction between state policy, civil society institutions, and the cultural attitudes of society. This article contributes to the development of scientific and practical recommendations aimed at protecting the rights of persons with disabilities, increasing their social participation, and promoting the development of an inclusive society.

Keywords. Persons with disabilities, social integration, inclusive society, legal protection, social policy, social institutions, cultural factors, equal opportunities, social adaptation, inclusion in society.

Аннотация. В данной статье анализируется роль и значение правовых, социальных и культурных факторов в процессе социальной интеграции лиц с инвалидностью в общественную жизнь. В исследовании рассматриваются правовые механизмы обеспечения прав лиц с инвалидностью, поддержка их активного участия в жизни общества, а также формирование инклюзивной среды, роль социальных институтов



Date: 1st April-2026

и культурных ценностей в данном процессе. Кроме того, анализируются факторы, препятствующие социальной интеграции лиц с инвалидностью, включая существующие в обществе стереотипы и социальные барьеры. Результаты исследования показывают, что эффективная интеграция лиц с инвалидностью в общественную жизнь требует гармоничного взаимодействия государственной политики, институтов гражданского общества и культурных установок общества. Данная статья направлена на разработку научных и практических рекомендаций по защите прав лиц с инвалидностью, повышению их социальной активности и развитию инклюзивного общества.

Ключевые слова. Лица с инвалидностью, социальная интеграция, инклюзивное общество, правовая защита, социальная политика, социальные институты, культурные факторы, равные возможности, социальная адаптация, инклюзия в обществе.

Hozirgi kunda nogironligi bo'lgan shaxslarni jamiyat hayotiga faol jalb etish masalasi nafaqat ijtimoiy siyosatning, balki inson huquqlari sohasining ham muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, dunyo aholisining sezilarli qismi turli darajadagi nogironlik bilan yashaydi va ularning katta qismi kundalik hayotda turli to'siqlarga duch keladi [1]

Shaxsiy kuzatuvlarimdan kelib chiqib aytishim mumkinki, nogironlik muammosi ko'pincha noto'g'ri talqin qilinadi. Ya'ni, u faqat tibbiy holat sifatida qabul qilinadi, holbuki amalda bu ijtimoiy muammo hamdir. Chunki ko'plab cheklovlar insonning o'zidan emas, balki jamiyat tomonidan yaratilgan sharoitlardan kelib chiqadi. Masalan, moslashtirilmagan infratuzilma yoki noto'g'ri ijtimoiy munosabatlar nogironligi bo'lgan shaxslarni jamiyatdan ajratib qo'yadi.

O'zbekiston sharoitida so'nggi yillarda nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlarini ta'minlash borasida muhim islohotlar amalga oshirilayotganini ham ko'rib o'tishimiz mumkin.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlis Senatining saylovdan keyingi birinchi yalpi majlisidagi nutqida nogironligi bo'lgan shaxslarning jamiyatga to'laqonli moslashuvini ta'minlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanayotganini ta'kidlagan edi.

Ta'kidlash lozimki, O'zbekistonning yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi 1-moddasida O'zbekiston ijtimoiy davlat ekani belgilandi. Unda mamlakatning ijtimoiy sohadagi majburiyatlariga tegishli normalar 3 barobar ko'paydi. Xususan, yolg'iz keksalar va mehnatga layoqatsiz, nogironligi bo'lgan shaxslar hamda aholining ijtimoiy ehtiyojmand boshqa toifalarining huquqlari davlat himoyasida bo'lishi Konstitutsiyada belgilab qo'yildi. Shu o'rinda e'tirof etish lozimki, ijtimoiy himoyani mahalla darajasida tashkil etish, ijtimoiy xizmat va yordamlarni kompleks yondashuv asosida ko'rsatish, og'ir ahvolga tushib qolishini oldini olish, shuningdek, ijtimoiy himoyaning manzilliligi va samaradorligini oshirish maqsadida tuman (shahar)larda Ijtimoiy himoya milliy



Date: 1st April-2026

agentligining “Inson” markazlari ochildi. Natijada 102 ta ijtimoiy xizmat aynan mahallalarda yo‘lga qo‘yildi. Ijtimoiy xodimlar uyma-uy yurib, 2024 yil reyestrda bo‘lmagan yana 95 ming muhtoj odamga yordam ko‘rsatdi. 51 ming odamga nogironlik belgilandi, 26 ming nafari protez oldi. Yotib qolgan 4 ming yolg‘iz keksa aniqlanib, ularga uyining o‘zida parvarish tashkil etildi. Nogironligi bor 5 ming nafar bola bog‘chamaktabga joylashdi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 2024 yil 13 dekabr kuni ijtimoiy himoya sohasidagi ishlar natijadorligi va 2025 yil uchun ustuvor vazifalar muhokamasi yuzasidan bo‘lib o‘tgan videoselektor yig‘ilishida 2025 yildan mahalladagi ijtimoiy xodimlar va xususiy sektor ishtirokida kambag‘al oilalardagi o‘zi harakatlana olmaydigan odamlarning 19 mingiga uyida va 4 mingiga kunduzgi qatnov asosida qarab turish yo‘lga qo‘yilishi belgilandi.

Shuningdek, davlat rahbarining 2023 yil 1 iyundagi “Aholiga sifatli ijtimoiy xizmat va yordam ko‘rsatish hamda uning samarali nazorat tizimini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida Ijtimoiy himoya milliy agentligi tashkil etildi. Ma‘lumot sifatida aytadigan bo‘lsak, mamlakatimizda nafaqa oluvchilar soni 2016 yilda 466 ming nafarni tashkil etgan bo‘lsa, 2024 yilga kelib 2 milliondan oshdi.

Darhaqiqat, nogironligi bo‘lgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlash tizimi samarali bo‘lishi uchun avvalo, ularning huquqiy muhofazasini ta‘minlash zarur. Prezidentimiz ta‘kidlaganidek, “Ijtimoiy sug‘urta to‘g‘risida”gi qonunning qabul qilinishi nogiron shaxslarning ijtimoiy himoyasini mustahkamlaydi va ularning hayot sifatini yaxshilashga yordam beradi. Bu qonun jamiyatning barcha a‘zolari uchun teng imkoniyatlar yaratishga yo‘naltirilgan bo‘lib, nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun ijtimoiy sug‘urta orqali ularning hayot tarzini yaxshilashni maqsad qiladi.[2]

Nogironlik tushunchasiga ilmiy yondashuvlar vaqt o‘tishi bilan sezilarli darajada o‘zgargan. Dastlab nogironlik asosan tibbiy model asosida izohlangan bo‘lib, bunda muammo shaxsning jismoniy yoki ruhiy holati bilan bog‘liq deb qaralgan. Biroq keyinchalik ijtimoiy model shakllanib, unda nogironlik jamiyatdagi to‘siqlar va cheklovlar natijasi sifatida talqin qilina boshlandi.

Nogironligi bo‘lgan shaxslarning ijtimoiy integratsiyasi ko‘p qirrali jarayon bo‘lib, u turli omillarning o‘zaro ta‘siri natijasida shakllanadi. Ushbu jarayonda ayniqsa huquqiy, ijtimoiy va madaniy omillar muhim o‘rin tutadi.

Avvalo, huquqiy omillarni ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, bu borada davlat siyosati hal qiluvchi rol o‘ynaydi. O‘zbekiston Respublikasida qabul qilingan “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida”gi Qonun[3] nogironligi bo‘lgan shaxslarning asosiy huquqlarini kafolatlashga qaratilgan muhim hujjatdir. Ushbu qonun orqali ta‘lim olish, mehnat qilish, sog‘liqni saqlash xizmatlaridan foydalanish kabi asosiy yo‘nalishlarda teng imkoniyatlar yaratish ko‘zda tutilgan.



Date: 1st April-2026

Biroq amaliyot shuni ko'rsatadiki, qonun mavjud bo'lishining o'zi yetarli emas. Amaliy faoliyat davomida ko'p holatlarda nogironligi bo'lgan shaxslar o'z huquqlaridan to'liq foydalana olmayotganiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Masalan, ayrim tashkilotlarda ishga qabul qilish jarayonida ular ochiq yoki yashirin ravishda rad etilishi mumkin.

Ijtimoiy omillar ham integratsiya jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, ijtimoiy xizmatlar tizimi, ta'lim va bandlik imkoniyatlari bu borada hal qiluvchi rol o'ynaydi. Inklyuziv ta'lim tizimi nogironligi bo'lgan bolalarning jamiyatga moslashuvini ta'minlashda muhim vosita hisoblanadi. Ammo hozirgi kunda bu tizim to'liq shakllanmaganini kuzatish mumkin. Ko'plab ta'lim muassasalarida zarur sharoitlar yetarli emas.

Shuningdek, bandlik masalasi ham dolzarb bo'lib qolmoqda. Nogironligi bo'lgan shaxslarning ish bilan ta'minlanish darajasi pastligi ularning iqtisodiy mustaqilligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bu esa o'z navbatida ijtimoiy ajralish xavfini kuchaytiradi.

Madaniy omillar esa eng murakkab va chuqur ildizga ega bo'lgan muammolardan biridir. Jamiyatdagi stereotiplar ko'pincha nogironligi bo'lgan shaxslarning imkoniyatlarini cheklab qo'yadi. Ko'plab hollarda ular jamiyat tomonidan passiv yoki yordamga muhtoj qatlam sifatida qabul qilinadi.

Shaxsiy kuzatuvlarimga ko'ra, ayrim hollarda hatto yaqin atrofdagilar ham nogironligi bo'lgan shaxslarga nisbatan ortiqcha achinish yoki past baholash bilan munosabatda bo'ladi. Bu esa ularning o'ziga bo'lgan ishonchini pasaytiradi. Bunda aynan madaniy omillarni o'zgartirish eng muhim vazifalardan biridir. Chunki agar jamiyatning o'zi o'zgarmasa, boshqa islohotlar kutilgan natijani bermaydi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, nogironligi bo'lgan shaxslarning ijtimoiy integratsiyasi faqat bitta yo'nalishda hal etiladigan muammo emas. Bu jarayon huquqiy asoslar, ijtimoiy xizmatlar va madaniy qarashlarning uyg'unlashuvini talab qiladi.

Yuqoridagi tahlillar asosida shunday xulosaga kelish mumkinki, nogironligi bo'lgan shaxslarni jamiyatga integratsiya qilish murakkab, ammo zarur jarayondir. Bu borada faqat davlat emas, balki butun jamiyat mas'uliyatni o'z zimmasiga olishi kerak. Nogironligi bo'lgan shaxslarni "alohida qatlam" sifatida emas, balki jamiyatning teng huquqli a'zolari sifatida qabul qilish eng muhim qadamdir. Aynan shu yondashuvgina haqiqiy integratsiyani ta'minlay oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. World Health Organization. World Report on Disability. Geneva, 2011.
2. https://uzbekembassy.com.my/uzb/news_press/jamiyat/nogironligi_bolgan_shaxslarning_ijtimoiy_hayotga_integratsiyasi_muhim_omildir.html
3. O'zbekiston Respublikasi Qonuni. 'Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida'. 2020.

